


Ona yurting - oltin beshiging



TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

2006-yil 10 - 16 - iyul N:28 (66569)

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

IKKI DO'ST HANGOMASI- YO'L QOIDASI NOMASI



3-BETDA

BEFARQ BO'LMAYLIK



4 - 5 -BETDA



6-BETDA

Toshlent viloyatining so'lim Parkent tumanida o'quvchilarning yozgi ta'il kunlarini ko'ngildagidek o'tishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Maktablar-qoshida tashkil etilgan sog'lomlashtirish maydonchalari, turli to'garaklar, kutubxonalar bolajonlar ixtiyorida.

Ayniqsa, bu boroda Parkentning tog'oldi hududida joylashgan «Boychechak» oromgohining o'rni beqiyos. Sababi, bu yerda nafaqat parkentliklar, balki Toshkent shahri va viloyatlardan kelgan bolajonlar ham tog'ning musaffo havosidan bahramand bo'lib, miriqib dam olishadi.



Oromgoh oromlari

o'tayotgani, ular orasida tashkil etilayotgan turli sport musobaqlari, ko'rik-tanlovlari va konsert dasturlari haqida gapirib ketishdi. Oromgoh kutubxonasiga kirganimda bolajonlarning allaqanday ertakni miriqib o'qishayotganini ko'rib, yanada hayratlandim. Axir yozgi ta'il o'yin-kulgu uchun beriladi, deya bo'sh vaqtlanini faqat xursandchilik bilan o'tkazadiganlar ham yo'q emas-da. Kutubxonachi opaning aytishicha, bu yerga kelgan bolalar birinchi navbatda «Tong yulduzi»ni so'rasharkan. Har bir sonini

«Boychechak»da bo'lsangiz...



- Tomoshabinlarni kuldirish uchun hatto qizlarning ko'ylagini kiyishga ham ko'ndik-a? - deyishyapti mana bu bolakaylar.

Tumanning eng so'lim hududida joylashgan bu maskandan ko'klamning, bolalikning, beg'uborlikning bo'yli taralib turadi go'yo. Sharqiroq soy etagida qad rostlagan oromgohdan taralayotgan shodon kulgu, zavqli hayqiriqlardan kichkintoylarning yomon dam olmayotganliklarini anglash qiyin emas. Buni ular bilan qilgan suhbatimdan ham bilib oldim.

Jajji o'g'il-qizlarga hali savol bermasimdan oq ta'tillari juda maroqli

qo'lma-qo'l qilib o'qisharkan.

- «Tong yulduzi»da biz kabi bolalar haqida yozishadi-da, - deya suhbatimizga qo'shildi kitob o'qib o'tirgan bir bolakay. - Axir tengdoshlarimizning qiziqishlari haqida bilishni kim ham istamaydi deysiz. Shuning uchun ham bu gazetani yaxshi ko'ramiz. Boshqa bolalar nashrlari esa uning o'rmini bosa olmaydi...

«Boychechak»da kechayotgan bolalarning maroqli va unutilmas damlaridan zavqlanib, bir zumgagina bo'lsa-da, bolalikka qaytgisi keladi kishining. Bugungi ko'ngilli hordiq bolajonlarga o'quv yili davomida kuch - g'ayrat, shijoat bag'ishlashi aniq. Bejiz aytishmaydi-ku, yaxshi dam - mehnatga hamdam, deb.

Sadoqat DADAYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani.



QARORIMDAN AFSOSLANDIM

Men Toshkent shahridagi 287-maktabning 5-«A» sinfini a'lo baholarga tamomladim.

O'qishlar tugab, ta'tilga chiqqan kunlarimiz edi. «Maktabingizda yozgi oromgoh ochilibdi, sen ham bormaysanmi, qizim?» deb qoldilar oyijonim.

-E-e, oromgohda nima bor? Uka va singim bilan uyda ham dam olaveraman, -degandim o'shanda...

Tunov kuni dugonalarim bilan maktab atrofini aylanib yurgandik. Bolalarning shodon qiyqiriqlari qulog'imizga chalinib qoldi. Qiziqib maktabga kirsak, darvozamiz tepasidagi «Qaldirk'och» nomli bolalar oromgohiga xush kelibsiz!» degan yozuvga ko'zimiz tushdi. Hali shodon qiyqiriqlar sport maydonchasidan taralayotgan ekan. Biz tengi bir guruh o'g'il-qizlar qandaydir sport musobaqasi o'tkazishayotgan ekan. Yana bir guruhi maktabimiz shifokori Shoira opa Alimovaning to'g'ri chiniqish haqidagi maslahatlarini diqqat bilan tinglab, so'ngra o'zlarini basseyndagi zilol suvgaga otishdi. Maktabimizning soya-

salqin bog'iga qo'yilgan o'rindiqlarda esa shaxmat-shashka ishqibozlari o'ychan dona surishyapti. Ma'lum bo'lishicha, ular ham o'zaro bellashishayotgan ekan. Buni qarangki, musobaqada 1-«A» sinf o'quvchisi Shahzodjon Qobilov g'olib chiqib, o'zidan katta aka-opalarini ham dog'da qoldirdi. «Gap yoshda emas, boshda» deganlari shu bo'lsa kerak-da! Yugurish bahsida esa g'alaba nashidasini surish 5-sinf o'quvchisi Dilnoza To'ychiyevaga nasib etdi. G'oliblarga maktabimiz direktori Muyassar opa Mahmudova esdalik sovg'alari ular shahganlarida ustozlarimiz Dilnoza opa Qo'ziyeva hamda Rohatoy opa Abduvohidovaning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi... Go'yoki mukofotni o'quvchilar emas, ular olishgandek.

Oromgohda yurib, kunning kech bo'lib qolganini ham sezmay qolibmiz. To'g'risi, oyimning oromgohda ham olgin, degan takliflariga ko'nmaganimga juda afsuslandim. Agar oromgoh kelasi oyda ham ochilsa, albatta u yerda ham olaman.

Hosiyat NIYOZOVA.



Maktabimizda tashkil etilgan yozgi oromgohning ikkinchi mavsumi ham yakunlanib

borayapti. Oromgohimizda dam oluvchilar o'qishlari uchun 13ta «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldik. Hayron bo'larsiz, nega endi 13ta. Avvaliga 10 donaga obuna bo'lishga ahd qilgan edik. Keyin boshlang'ich sinf o'qituvchimiz Muhtaram opa Nasullayeva o'z hisobidan yana 3taga obuna bo'ldi. Chunki ular oromgohda tashkil etilgan qator to'garaklardan biri - husnixat to'garagini boshqaradilar-da. Men ham ana shu to'garakka

YOZ UCHUN «TONG YULDUZI»GA OBUNA



qatnashayotganim bois ko'p sir-asrirlarni o'rganib oldim.

-Husnixatning chiroyli yozilishi ruchkaning sifatiga bog'liq. Partaga qomatni tik qilib o'tirib,yozuvning qiyalik holati 65 foiz bo'lishi, harflar bir-biriga qo'shib yozilishi kerak,- deydi Muhtaram opamiz.- Daftardagi yozuvlar to'lib borgan sari daftar yuqoriga suriladi. Chap qo'l bilan esa daftarning yuqori tomoni bosib turiladi. Bunda harflarning o'chami ham muhim ahamiyatga ega. Kichik harflarning balandligi 4 mm, bosh harflarning balandligi 8 mm. bo'lishi shart. - Savodxonlik avvalo husnixat bilan o'chanadi, - deydilar ular.- Chunki qayerga bormang, sizning yozma arizangiz, yozma ishlaringiz ko'zdan kechiriladi. Agar xatingiz chiroyli va bexato bo'lsa, albatta rahbarning e'tiboriga tushasiz. Shuning uchun ham chiroyli yozishga harakat qiling.

Ko'rningizmi, aziz do'stlar, biz yozgi ta'tilda ham vaqtini unumli o'tkazishga harakat qilayapmiz. Maktab oromgohimizda yaratilgan sharoitlar zo'r. To'rt mahal ovqat, suv havzasida cho'milish, kinolar ko'rib, diskotekalar uyushtirish bizga yоqadi. Ayniqsa, turli-tuman sport musobaqalarini aytmasizmi? Sizlarga ham yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishni tilab qolaman.

S. INOYATOV,
Buxoro shahridagi 34-umumta'l'm
mabitining maktab sardori.

CHUMOLI

Safida tizilib boradi,
O'z yo'li bor, o'z yo'fig'i bor.
Gar bilsangiz bu chumoliga
Hech kimsaga bermaydi o'zo.

Mehmatidan zavq olar faqat,
Hech xiyonat cilmas do'stiga.
Uyasini buzib nogahon,
Qadamingiz qo'y mang ustiga.

Maftuna ESHONQULOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
26-mabitning 5-«V» sinf o'quvchisi.

Ta'til qanday o'tayapti, bolalar?

Aziz bolalar, hayotda sog'lom, mukammal rivojlanish darajasiga ega bo'lmagan tengdoshlar uchratib turasiz-a. Ularning orasida fikrlash

- doirasi o'ta yuqori, bilimi juda kuchlilari ham talaygina. Faqatgina bir oz ruhiy rivojlanishda nuqsoni bor, xolos. Boshqa sezgi organlari yaxshi rivojlangan bo'ladi.
- Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 105-maxsus yordamchi maktab-internatda shunday o'quvchilar tahsil oladi.

Ta'til davomida ishlab turadigan maktab oromgohida yaqinda «Balli, yigitlar!» tanlovi bo'lib o'tdi. Unda 9-sinf o'g'il bolalarni tanishtiruv, sabzi to'g'rash, savol-javob, tugma qardash, yer chopish, limonni yeyish, xo'roz o'yini kabi shartlarni bajarishib, har bir o'g'il bola munosib taqdirlandi. Masalan, eng epchil yigit, eng mohir yigit, hunarmand yigit va hokazo. Vaqt dan unumli foydalaniib, maktab-internat direktori Maktuba opa Yo'Idoshevaga yuzlandim:

MEHNATGA YO'G'RILGAN TA'LIM

-Bizda asosan ta'lim mehnat tarbiyasiga yo'naltirilgan. O'quvchilarimiz duradgorlik, tikuvchilik, kandakorlik, kosibchilik, sartaroshlik, zardo'zlik kabi hunarlarni o'rganadilar. A.Aliyev «Futbol», M.Aliyeva va L.Orlova «Raqs», A.Asimova «Yosh musavvir», M. Yo'ichiyeva «Mohir qo'llar» to'garaklariga rahbarlik qilibgina qolmay, yuqori natijalarga ham erishyaptilar.

Muslima Yo'ichiyeva shogirdlarini mohir qo'l egalari desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, zarli iplarni yo'rg'alash, munchoq tukish borasida talaygina yutuqlarni qo'lga kirityaptilar. Ma'rifat va ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari Ra'no Abdusalomova, O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari Muqaddam Yunusova, internatimiz yetakchisi U.Samatova kabi fidoyi ustozlarimiz 300ga yaqin o'quvchiga bilim beribgina qolmay, bor mehrlarini ham fido aylashga tayyorlar. Sinfxonalarimiz yorug, zamon tabalalariga hamda bolalarning bilim va ko'nikma olishlariga mos ravishda jihozlangan. Shu o'rinda homiyalarimizni alohida aytib o'tishim o'rnlidir. Chunki ular ko'magi asosida nuqsonli bolalarning o'ksik qalbalariga bir oz malham bo'la oladigan sovg'a-salomlar beramiz.

O'zbekiston Respublikasi qo'riqlash internatimiz hisob raqamiga bosh boshqarmasidan maktab-

bir million so'm pul o'tkazdi.

dasturxon solib, osh

O'rtal Osiyo

x a l q a r o

t a s h u v l a r

aksiyadorlik

yasi, O'zbe-

I s h l a r

akademiyasi

tashkilotlar

yordam qo'lini

ulardan cheksiz

Mana, tadbirimizni

Bizda doimo shunday

munosib taqdirlanadi.

- «Tong yulduzi»ga ham obuna bo'lganmisizlar?

-Albatta. Har bir sinfga bittadan homiyalarimiz ko'magida bolalar nashri uchun obuna bo'lamiz. Aytgancha, o'quvchilarimiz orasida ham bir oz qalam tebratib turadiganlari bor. Ularning ijod namunalarini chop etsangizlar, juda savobli ish qilgan bo'lar edingiz.

-Tahririyatimizga kelgan xat va maqolalar albatta o'z javobini oladi. Ular e'tibordan chetda qolmaydi. Tahrirtalab bo'lmasa, gazetamiz sahifalarida albatta o'qiysiz...

Maxsus-internatda ko'tarinkilik hukm sursa-da, ko'nglim taskinga muhtojlik sezdi. Sidqidildan bilim olishga, har taraflama

o'zini ko'rsatishga shay turgan o'g'il-qizlarga qarab turib, noshukur bolalarni esladim.

To'rt muchasi sog' bo'la turib bilim olmay, bekorchilik, bezorilikka ruju qo'yganlar kammi? Qani endi o'shanday

«hulqi og'ir»lar mana bunday tengurlarini ko'rishsa, bularning yutug'iga sherik bo'lishsa.

«Bir kam dunyo», deb shunga aytsalar kerak-da??



Anvar OBIDJON

IKKI DO'ST HANGOMASI -YO'L QOIDASI NOMASI

(Yo'l harakati qoidalari haqida)

SHUM BOLANING TASHRIFI

Bu ajoyib voqeal Sebzor mahallasida yashovchi 7-sinf o'quvchisi Muzaffar nomli bola bilan ro'y berdi. Qanday voqeal deysizmi? Bo'limasa, eshitin:

O'sha kuni Muzaffar televizordan Shum bola haqidagi kinofilmni ko'rgach, uzoq vaqtgacha uxlolmay gaplashsam», deb o'yladi u xayol surib yotgancha.

Shu payt... kutilmagan hodisa ro'y bola jilmayib kirib keldi. Ha, ha, xuddi oq yaxtak ko'yak. Oyog'ida esa...

Muzaffar «tushimmi, o'ngimmi» sakrab o'midan turib ketdi.

-Sh...sh -dedi u hayajonlanib.

-Topding, xuddi o'sha Shum bola

-Q... qanday qilib?

-Axir sen meni juda ko'rging

-Bo'limasamchi,- Muzaffar Shum

-Do'stim, kelganidan juda

Muzaffarlarning uyi ko'p qavatl joylashgan edi. Balkondan shaharning katta qismi ko'rinish turardi. Ular balkonga chiqib, tungi Toshkentni tomosha qila boshladilar.

-Huv anovi dumaloq binoni ko'ryapsanmi? - deb tushuntira ketdi Muzaffar. -U sirk binosi. Mana bu tomonda esa Chorsu bozori joylashgan. Anavi qadimiy imorat...

-Ko'kaldosh madrasasi,- dedi Shum bola.

Muzaffar Shum bolani uya olib kirdi. - Oyim bilan dadamlar hozir uyda yo'qlar. Ular geolog. Bilasanmi, ular tog'-u toshdan kon izlashadi.

-Tilla qidirishadimi?

-Nega endi tilla bo'larkan. Ko'mir konlarini ochishadi. Ha, aytmoqchi, ertaga dam olish kuni. Men hayvonot bog'iga bormoqchi edim.

-Hayvonot bog'i?

-U yerda turli xil hayvon va qushlar asraladi. Sen qatiq berib o'ldirib qo'ygan miqqiy va qarchig'ay qushlarning avlodlaridan ham bor,-dedi Muzaffar kulib.

-Pochchamning qushlarini aytapsanmi? -dedi Shum bola.-Qushlar qatiq ichmasliklarini endi bilib olganman. Ayt-chi, sen oshiq o'ynaysanmi yo it urishtirasamni?

-Nima deyapsan? Bunday o'ynalarni o'ynagan emasman. Do'stalarim ham o'ynamaydi. Men yosh modelchilar to'garagiga qatnashib, u yerda turli xil avtomashinalarning jajji nusxalarini yasashni o'rganaman.

Ular allamahalgacha gaplashib yotib, qanday uxlab qolganlarini bilmay qoldilar. Shum bola ko'zini ochganda Muzaffar balkonda turvolib, qo'llarini ikki tomonga olib mashq qilayotgan edi. Ular yuvinib, oshxonaga kirganlarida Muzaffarning buvisi Shahodat xola ertalabki nonushtani tayyorlab kutib turgan edi.

-Shum bolaginam, bo'ylaringga qoqindiq,-deb Shahodat xola u bilan ko'risha ketdi. -Muzaffar nabiram ertalab sen haqingda gapirib berdi. Zap yaxshi ish qilibsan do'stingni ko'rgani kelib.

Muzaffar «Ana, aytmadimmi» deganday jilmayib Shum bolaga qaradi. Ular choy ichib olgach, hayvonot bog'iga otlandilar.

SHAAR BO'YLAB SAYOAT

Shum bola shaharni tezroq ko'rishga oshiqardi. Shu sabab bo'ldimi,u to'satdan katta ko'chaning narigi betiga yugurib o'tmoqchi bo'ldi. Ko'chaning yarmiga ham borgan edi, qarshi tomonidan kelayotgan «Jiguli» mashinasi qattiq tormoz berib, uning yoniga kelib to'xtadi. Shum bola mashina kapotini ushlagancha qoldi. Bir pastda uning atrofida odamlar ham, mashinalar ham to'planib ketdi.

-Hoy bola, nima balo osmondan tushdingmi? - dedi ko'zynakli haydovchi yigit ko'yagi yoqasini yecharkan.

Bu yerga yugurib kelgan Muzaffar:

-Amaki, kechiring uni,- dedi-da, Shum bolaning qo'lidan mahkam ushlab, piyodalar yo'lkasiga olib o'tdi.

-Nima qilib qo'yganiningni bilsanmi? Qiziq ekansan-ku.

Shum bola karaxt odamdek qotib turardi. Muzaffar tezda jahlidan tushdi. Axir Shum bola hal ko'cha qoidalari bilmas edi-da.

-Tushunarli, senga avvalo ko'chada yurish qoidalari o'rgatishim kerak,-dedi Muzaffar.-Yo'l yo'lakay senga yo'l belgilarini ko'rsatib, ularga

berdi. Balkon eshigi «g'iyq» etib ochilib, xonaga Shum o'sha Shum bola. Boshida eski do'ppi, ustida hech nima yo'q.

deganicha ko'zlarini ishqaladi, so'ng

bo'laman.

keldi-ku.

bolaning qo'lini siqib ko'risha ketdi. xursandman.

binoning sakkizinch qavatida

joylashgan edi. Balkondan shaharning katta qismi ko'rinish turardi. Ular balkonga chiqib, tungi Toshkentni tomosha qila boshladilar.

-Huv anovi dumaloq binoni ko'ryapsanmi? - deb tushuntira ketdi Muzaffar. -U sirk binosi. Mana bu tomonda esa Chorsu bozori joylashgan. Anavi qadimiy imorat...

-Ko'kaldosh madrasasi,- dedi Shum bola.

Muzaffar Shum bolani uya olib kirdi. - Oyim bilan dadamlar hozir uyda yo'qlar. Ular geolog. Bilasanmi, ular tog'-u toshdan kon izlashadi.

-Tilla qidirishadimi?

-Nega endi tilla bo'larkan. Ko'mir konlarini ochishadi. Ha, aytmoqchi, ertaga dam olish kuni. Men hayvonot bog'iga bormoqchi edim.

-Hayvonot bog'i?

-U yerda turli xil hayvon va qushlar asraladi. Sen qatiq berib o'ldirib qo'ygan miqqiy va qarchig'ay qushlarning avlodlaridan ham bor,-dedi Muzaffar kulib.

-Pochchamning qushlarini aytapsanmi? -dedi Shum bola.-Qushlar qatiq ichmasliklarini endi bilib olganman. Ayt-chi, sen oshiq o'ynaysanmi yo it urishtirasamni?

-Nima deyapsan? Bunday o'ynalarni o'ynagan emasman. Do'stalarim ham o'ynamaydi. Men yosh modelchilar to'garagiga qatnashib, u yerda turli xil avtomashinalarning jajji nusxalarini yasashni o'rganaman.

Ular allamahalgacha gaplashib yotib, qanday uxlab qolganlarini bilmay qoldilar. Shum bola ko'zini ochganda Muzaffar balkonda turvolib, qo'llarini ikki tomonga olib mashq qilayotgan edi. Ular yuvinib, oshxonaga kirganlarida Muzaffarning buvisi Shahodat xola ertalabki nonushtani tayyorlab kutib turgan edi.

-Shum bolaginam, bo'ylaringga qoqindiq,-deb Shahodat xola u bilan ko'risha ketdi. -Muzaffar nabiram ertalab sen haqingda gapirib berdi. Zap yaxshi ish qilibsan do'stingni ko'rgani kelib.

Muzaffar «Ana, aytmadimmi» deganday jilmayib Shum bolaga qaradi. Ular choy ichib olgach, hayvonot bog'iga otlandilar.



qarab piyodalar o'zlarini ko'chada qanday tutishlari kerakligini tushuntiraman.

-Sen bularni qayerdan bilasan?-dedi Shum bola nihoyat tilga krib.

-Maktabimizda bizlarga o'rgatishadi. Bundan tashqari «Svetofor» klubining a'zosiman. Klubda yo'l harakati qoidalari o'rganamiz.

Ular piyodalar yo'lkasi bo'ylab Xadra maydoni tomon yura boshlashdi.


-Mana bunga qara,-dedi Muzaffar yo'l chetidagi ustunga o'rnatilgan belgini ko'rsatib.- Bu belgi piyodalarning harakat qilishini ta'qilaydi. Ko'rayapsanmi, odamning shakli chizilib, ustiga qizil chiziq tortib qo'yilgan. Demak, bu yerdan ko'chani kesib o'tish mumkin emas.

Ular yurishni davom ettirib, sirk binosi oldiga yaqinlashib qolgan ham edilar, Shum bolaning ko'zi yana bir belgiga tushdi.

-Bu belgi piyodalar yo'lkasiga o'rnatiladi,- dedi Muzaffar,- Shu sababli yurishni ta'qilaydi, aksincha, yo'l piyodalar yo'lkasi ekanligini bildiradi. Bizda piyodalar o'ng tomonidan yuradilar.

Ular sirk binosi oldidagi maydonda to'xtadilar.

-Shum bola, hozir huv anavi yerdagi bekatdan tramvayga o'tirib, yo'limizni davom ettiramiz,-dedi Muzaffar,- Lekin u yerga borishdan avval senga svetoforlar haqida gapirib bermoqchiman. Chunki yo'limizda svetoforlar ko'p uchraydi.



YASHIL, SARIQ VA QIZIL CHIROQLAR

-Svetofor nima degani?

-Svetofor – ko'cha harakatini tartibga soladi. Odamlar ham, mashinalar ham uning ko'zlariga qarab yuradilar. Shahrimizda turli xil svetoforlar o'rnatilgan. Ularning ishslash tartibini bilib olmasdan, ko'chada yurish mumkin emas. Unga amal qilgan holda ko'chada yursang, o'z hayotining ham, o'zgalar hayotini ham xavf ostiga qo'yamsan.

-Qoyil, ko'p narsani bilar ekansan.

Ular Xadra maydonidagi piyodalar o'tish joyini bildiruvchi belgi qo'yilgan yerga kelib to'xtadilar. Bu yerdan turli xil svetoforlar ko'rinish turardi.

-Shum bola, ko'ryapsanmi huv anavi uch chiroqli svetoforni? - dedi Muzaffar yoniga bir to'da mashinalar kelib to'xtagan svetoforni ko'rsatib: - Uning uch ko'zi bo'lib, yuqorisidagi qizil, o'rtasidagi sariq, pastdagisi yashil rangda galma-galdan yonadi. Mana hozir yuqorisidagi qizil chiroq yonayotgani uchun mashinalar to'xtab turibdi. Chunki qizil chiroq harakatni ta'qilaydi. Sariq chiroq – yaqin orada harakat boshlanishidan haydovchilarni ogohlantirsa, yashil chiroq – harakat qilishga ruxsat beradi. Ana ko'rdingmi, yashil chiroq yonishi bilan mashinalar harakatga tushdi.

-Unda biz qachon o'tamiz?- hayron bo'lib so'radi Shum bola.- Men tezroq hayvonot bog'ini ko'rgim kelyapti.

-Hozir o'tamiz. Avval mana bu svetoforga qara. Bu piyodalar svetofori deyiladi. Agar tepasidagi qizil chiroq yonib tursa, o'tish mumkin emas. Ana, yashil chiroq yondi. Endi o'tsak bo'ladi.

Ular tez-tez yurib, ko'chaning o'ng betiga o'tib oldilar. Yerosti yo'lidan o'tishdan oldin uning yonginasida turgan belgini Muzaffar Shum bolaga ko'rsatdi.

(Davomi bor).

Xush-noxush o'tar yozim

Yozgi ta'til kunlarining eng qizg'in pallasi avjida. Ta'til so'zini har kim o'zicha tushunadi. Ayrim o'yinlar qolajonlar bu damlarni kun bo'y o'ynab, miriqib uslash bilan o'tkazishadi. Kitob o'qishdan so'z ochsangiz, 9 oy yotvotib o'qib qo'yanmiz, deydiqanlari ham topildi. Ba'zilar esa albatta qayergadir borishni, so'lim oromgohlar bag'rida dam olishni tushunishadi. Biroq sababga ko'ra borolmay qolishsa, ta'ildan ko'nigillari to'lmay yuradi. Yana bir toifa o'g'il-qizlar ham borki, bu fursatni g'animat bilib, hunar o'rganishga harakat qilishadi. Sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanib, ta'tilning har kunini mazmuni o'tkazishga intilshadi.

Yana ayrim tengdoshlarigiz ham borki, ularni quyosning erta tongda bo'zarib chiqishi-yu, zarrin nurlarini borliqqa sochishi ham, daraxtlarning «shibir-shiviriyyu, qushlarning chug'ur-chug'uri ham zavqlantira oladi. Chunki ular ijodkor bolalar-da.

Quyida ana shunday ijodkor o'g'il-qizlarning ta'til kunlarini qanday o'tkazishayotgani bilan tanishasiz.

Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi X.Boqiyev nomli 1-maktabning 7-sinfini a'lo baholar bilan tamomlagan Dilnavoz Saidova ana shunday tengdoshlarigizdan biri. U onasining eng yaqin ko'makchisi. Uy yushmanlardan bo'shadi deguncha qo'liga qalam, bo'yoq oladi. She'lar qoralaydi, topishmoqlar yozadi, rasmlar chizadi. Shu tariqa ta'til kunlarini mazmuni o'tkazishga intiladi.

Kuni kecha u bizga multfilm qahramonlari aks ettiligan rasmlari, she'riy mashqlari hamda topishmoqlaridan yuboribdi. Topag'on bo'lsangiz, javoblarini toping-chi!

KAPALAK

Juda havasim kelar kapalakka,
Qanotlari o'xshaydi karnalakka.
Doim qo'nib uchadi gul, chechakka,
Xoldek yarashar uchsa ko'k falakka.

Qani edi kapalakcha bo'lib qolsam,
Shoxga qo'nsam, gulga qo'nsam, ushsan har dam.
Labalardan bo'sa olsa gul, lolalar,
Ortundan qolmay chopishsha sho'x bolalar.



«BOBO, CHOYXONAGA CHIQMAYSIZMI?»

Toshkent shahridagi 186-maktabning 4-sinf o'quvchisi Gulira no' Musayeva esa o'zining ta'til kunlari juda quynoq, maroqli o'tayotgani, lekin buvasingin zerikb qolayotgani haqidagi yozim.

Mahallamizda doimo otaxonlar bilan gavjum bo'ladiqan bir choyxona bor edi. Buvajonim ham zerikkan paytlari o'sha yerga chiqib, o'rtoqlari bilan gurungashib qaytardilar. Ana shu subbatlar davomida mahallani yanada obod qilish, ko'kalmazorlashtirish rejalarini ham tuzilardi. Har yili erta bahorda momolarimiz to'planishib, katta doshqozonda bizga sumalak pishirib berishardi.

Asosiy vaqtlanri choyxonada o'tkazadigan bobojonim keyingi paytlarda uydan chiqmay qo'yildilar. Zerikib o'tirishlarini ko'rib, choyxonaga chiqmaysizmi bobojon, deb so'radim.

-Ona qizim, choyxonamizni buzib, o'mniga ko'cha qurishar ekan, - dedilar bobom xomush tortib.

Shunda bobojoninga juda rahmim kelib ketdi. Biz bolalar-ku istagan yerimizda o'ynab, o'zimizni xursand qilib yuramiz. Lekin bobolarimiz-chi, ularning birgina ovunadigan yerlari shu choyxona edi. Endi shundan ham mahrum qilishdi. Menga choyxonanigina emas, mahallamizning fayzini ham buzib tashlashayotgande tuyulyapti.

Gulira no' MUSAYEVA.

Qozon ichida oppoq qor,
Oh, mazali ta'mi bor.

Egiladi,
Bukiladi,
Mevalari
To'kiladi.

TOPISHMOQLAR

Mayda-mayda xoli bor,
Mazasida boli bor.
Pishadi may, iyunda,
Yeb qo'yaman bir zumda.

Rangi sariq, ko'k, qizil,
Navlari bor turli xil.
Yoz, kuz payti pishadi,
Tap-tap yerga tushadi.
Tezroq top, o'yna, tolma,
Nomidir uning...

Dilnavoz SAIDOVA.

Toshkentlik tengdoshingiz Dilrabo Do'stqobilova ham she'riyat shaydosi. Anchadan buyon she'rlar qoralab, mayzuga moslab rasmlar chizib yuradi.

Yaqinda xandalar asosida chizgan rasmlarini olib kelib qoldi. Rasmlari xandalar biza ma'qul bo'ldi.

-Madina, qara, bolalar sening inshoyingni ko'chirishyapti.

-Xavotirlanma, inshoyimning nomi «Mening dugonalaram». U sizlar haqingizda yozilgan.



«BOBO, CHOYXONAGA CHIQMAYSIZMI?»

Toshkent shahridagi 186-maktabning 4-sinf o'quvchisi Gulira no' Musayeva esa o'zining ta'til kunlari juda quynoq, maroqli o'tayotgani, lekin buvasingin zerikb qolayotgani haqidagi yozim.

Mahallamizda doimo otaxonlar bilan gavjum bo'ladiqan bir choyxona bor edi. Buvajonim ham zerikkan paytlari o'sha yerga chiqib, o'rtoqlari bilan gurungashib qaytardilar. Ana shu subbatlar davomida mahallani yanada obod qilish, ko'kalmazorlashtirish rejalarini ham tuzilardi. Har yili erta bahorda momolarimiz to'planishib, katta doshqozonda bizga sumalak pishirib berishardi.

Asosiy vaqtlanri choyxonada o'tkazadigan bobojonim keyingi paytlarda uydan chiqmay qo'yildilar. Zerikib o'tirishlarini ko'rib, choyxonaga chiqmaysizmi bobojon, deb so'radim.

-Ona qizim, choyxonamizni buzib, o'mniga ko'cha qurishar ekan, - dedilar bobom xomush tortib.

Shunda bobojoninga juda rahmim kelib ketdi. Biz bolalar-ku istagan yerimizda o'ynab, o'zimizni xursand qilib yuramiz. Lekin bobolarimiz-chi, ularning birgina ovunadigan yerlari shu choyxona edi. Endi shundan ham mahrum qilishdi. Menga choyxonanigina emas, mahallamizning fayzini ham buzib tashlashayotgande tuyulyapti.

Gulira no' MUSAYEVA.

Zuhiddin ALIXONOV.

Toshkentlik tengdoshingiz Dilrabo Do'stqobilova ham she'riyat shaydosi. Anchadan buyon she'rlar qoralab, mayzuga moslab rasmlar chizib yuradi.

Yaqinda xandalar asosida chizgan rasmlarini olib kelib qoldi. Rasmlari xandalar biza ma'qul bo'ldi.


-Gulshan, qara, qizlar meni «3» baho olganim uchun ustidandan kulishyapti.

-Xafa bo'lma, o'zlar hali «2» olishganini bilishmaydi.

Samarqand viloyati, Samarqand shahridagi 8-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Abdurasul Nabiyev esa bo'sh goldi deguncha qo'liga kitob olarkan. O'qigan ertaklari, hikoyalaridan ta'sirlanib, o'zi ham she'riy ertak yozibdi.

«Bor ekan-da, yo'q ekan, dono chol bo'lgan ekan. Yuz yillardan ortiq yashab, ko'p narsa ko'rgan ekan. Bor ekan uning qizi, uch o'g'il nabirasi. Bir-biri bilan doim urisharkan barisi...»

She'riy ertakning shunday ravon, mazmuni boshlanishini o'qib quvongandik. Lekin quvonchimiz uzoqqa cho'zilmadi. Abdurasul ertagiga xulosa yasamabdi. «Nabiralariga 4ta novda keltirning debdi-yu, uch kundan so'ng olamdan o'tibdi», deya ma'no-mantiqsiz yakunlab qo'ya qolibdi. Shuning uchun ham ertagini to'laligicha chrop etmadik. Lekin uning rasm chizishga bo'lgan ishtiyogi bizni quvontirdi va quvnoq filchani aks ettingan rasmini e'tiboringizga havola qilyapmiz.



BEFARQ BO'LMAVLIK

Shahrimiz ichida qatnaydig'an 53-avtobusda saylighoga mehmonga ketayotgandim. Yoniginamda turgan, ko'zlar atrofga olazarak boqayotgan, hansirab, tez-tez nafas olayotgan bir bolakay diqqatimni tortdi. Shu payt uning yonida o'zidan biroz kattaroq ikki bolakay paydo bo'lди-da, yur, seni akin chiqiriyapti, deya kulumisrab, ikki qo'lidan tortqilay boshlashdi. Bolakay esa, mening hech qanday akam yo'q, qo'yib yuboringlar, deya atrofdagilarga umid bilan javdirab qarardi. Janjalga chiptachi amaki ham aralashdi. Bolakayni avtobusga chiqarib, haligi bezorilarni quvib soldi.

-Bu bolalar kimlar, ular seni qayerga olib borishmoqchi?-debi so'radi bir ayol nafasini biroz rostlab olgan bolakaydan.

-Ular meni necha soatdan buyon quvib kefisheyapti. Krossovkam bilan oylik chiptamni olib qo'yishmoqchi,-dedi bola ohistagina.

-Xafa bo'lma bolajonim, qayerda turishingni aytsang, o'zim uyingga kuzatib qo'yaman,-dedi haligi ayol mehribonlik bilan bolanligi boshini silab.

-Yaqinda o'g'limning ham sumkasi va krossovkasini bezori bolalar tortib olishibdi. Lekin unga hech kim yordam bermabdi...

Haligi ayol bilan bolakay yetaklashi, «Shofayz» bekatida tushib qoldilar.

Endi xavotirga o'rin qolmagandi. Shunday bo'lsa-da, ko'nglimdag'i hijillik yozilmadi. Haligi ayolning «hech kim yordam bermadi» degan gapi meni o'ylantirib qo'ygandi. Darhaqiqat, ko'z oldilardida sodir bo'layotgan ayrim noxushliklarni ko'rib, ko'rning qurashini oladiganlar, «och qornim, tinch qulog'im» qabilida ish tutadiganlar ham topiladi-da kattalarimiz orasida. «Bir bolaga yetti qo'shi ota-onasi», degan aqidani unutib qo'yishganmi, deyman-da.

SHE'RIM

Hislarim bir go'zal she'r bo'ldi,
Satrlarda orzum ummoni.
Dil tubida neki bor, bildi,
Qog'oz, qalam qolmay armoni.


Sirlarimi sochdim ishonib,
She'rlarimning har bir bandiga.
Shod damda shod g'amlardan tonib,
Singib ketdim hatto bag'riga.

Diyora G'AFUROVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
75-maktab o'quvchisi.

Nima qilsa sen uchun,
Qiladi ota-onang.
Bolam kamol topsin deb,
Yeladi ota-onang.

Yaxshi inson bo'lgan sen,
Xafa qilma ularni.
Shunda ota-onas baxtin
Tuyadi ota-onang.

Marg'uba SAIDQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod
tumanidagi
6-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Bir xola aravachasida bitta bolani yetaklab kelib, buvim bilan ko'rishdi.

-Yaxshimisiz? Yaxshi yuribsizmi? Bolalaringiz? Uydag...

-Uff, buvi, buvi-i... Bo'ldi, ketaylik.

Buvim meni eshitmay, endi aravachadagi xo'mraygan bolani gapga soldilar:

-Voy bu bolaning chiroylilagini! Oqligi onasidan o'tibdi. Qosh-ko'zining qoraligi – otasidan.

-Ha, Xudoyim chevar. Kelinim o'zi tug'masa ham, o'g'limning qonidan bo'lmasa ham o'zimizga o'xshab ketyapti deb ishonaman... Ayniqsa, siz kabi qayta-qayta o'xshashini keltirib o'xshatishganidan keyin odam ishonib qolarkan.

-Bola tuqqan-nikimas, **MEN BU YERDAMAN**

boqqanniki. Ajab emas, o'zlariga ham berib qolsa!

-Bersa, o'n ikki yildan beri berardi. O'n ikki yil-a! O'n ikki yil! Bolam ajrashmayman deb turib oldi-da. Bo'lmasam...

-Unaqa demang. Xursand bo'lmasizmi bolangiz bir ojizaning ko'ngliga qarab, umrini unga baxshida etayotganidan! Boshqa farzandlaringizning bolasi bor-ku! Ular qatorida bu ham o'saveradi-da. Ana, Rasulni qarang, Hafizning o'g'li,

birinchi xotinini tug'mading, deb ikki yilda haydab yubordi. O'sha kelin boshqa uy-joy qilib, uchta farzand ko'rdi. Rasul ham uch yilda yana ikki marta uylandi. Hamon bolasiz...

U xola esa yig'lashga tushdi.

-Doktorlar bilan gaplashganman. Bolamda emas ayb. Ikki marta kelinni uyiga jo'natib yubordim. Uch-to'rt kun jim turgan o'g'lim ichib kelib qildi to'polon, qildi janjal! Qoshiq uchib, choynak sinib, derazalar ko'zidan ajraldi. Nima qilay, o'zim yana yalinib borib olib keldim kelinni.

-Olib kelasiz-da, albatta oldingizda mana bunday nabirani ko'rish nasib qilib turgandan keyin! Qarang buni chiroylilagini! Chirolyi ishq-muhabbatlardan bonyod bo'lgan-da bu bolakay!

-Asalim ekan-ku bu, shakarim ekan!

Buvim o'sha bolani ko'tarib o'ynata boshladilar.

-Buv, buvi-i, - baqirdim men.

-Men bu yerdaman!



-Yaxshi! Ko'rib turibman shu yerdaligingni.

Buvim o'sha xotinga yana gapira ketdilar.

-Abdumajid ham asalim! Novvot, qanddim menin! O'zi chirolyi. Ko'zlar dum-dumaloq, sochlari qop-qora, ukasi ham bor, oti Abdubosit.

-Ukam qorav-o-y.

-Sen-chi, - so'raydi haligi xola.

-Men o-o-oqman!

Albatta oq bo'lasan-da! Sening buving ham, oying, dadang ham op-poq! Mening nabiramning esa ko'zlar ko'k bo'lib ketayapti...

Buvim u xotinga yana ancha gaplarni gapirib qoldilar. Men esa ko'zi ko'k bolani tomosha qildim: qo'li qiltiriq, burnidan suv oqqan, og'zidan so'lagi...

Shuning uchun shildiroq so'lakchasi ho'lbo'lib qolgan. Ammo tuflichasi chirolyi ekan.

-Tufligi bor-ku, nega o'zini yurgizmaysiz?

-Yurolmayapti. Oyog'ini urayaptimi bu tuflili qurgur, bilmadim. Buni o'g'lim o'n to'rt mingga «zakaz» qildirib tiktirib keldi. Oyog'ining tovoni silliq ekan. Katta bo'lsa armiyaga olmasmish. Shuning oldini olishayapti.

Bizning bolalar oyoq kiyimini poyma-poy kiyibmi, yoki yalangoyoq yuri b m i, k o ' c h a changitib, tuproqlarga Endigilarga esa qo'yib dazmollab kiyga-

-K a l i s h n i Erib ketadi.

-Erimaydigan

-Voy xolajonisi, gapira ko'rmang. Bu bo'ladimi, bilmadim.

Kecha sal qoldi tok urib elektr choynakni tiziwdi. chayon chaqibdimi tarafiga kirgan ekan sim

Xola menga o'qrayib teshar bola bo'lmasin-da! uraverardi Hojiakbar ketdi bolaga!

Uff, yana Hojiakbar xotin buvimga. Endi,

YOZILMAGAN KITOB



Umida ABDUAZIMOVA.

KO'K KO'Z BOLA

belanib katta bo'lishgandi. bersang, kalishini ham zishadi.

dazmollab bo'lmaydi-ku.

qilib dazmollahadi.

nabiramga aslo dazmoldan ham otasiga o'xshab injener Hamma narsaga urinaveradi. olishiga, razetkaga vilkasi yo'q Birdan baqirib yuborsa, ilon, debman! Xudo mehribon, bir o'lur!

qaradi: -Unaqa temir O'zini o'tga-suvga amaking ham! Ko'z tegib

amakimni eslatdi-ya bu tamom, bu yerda kamida

ariqchadagi suvga ro'molchasini ho'llab yuzimga bosdi. Buvim unga baqirdilar:

-Balchiqli suvni yuziga tegizmang. Otasi ariqqa tushib ketib, sariq kasal bo'lib qolgandi. Suv iflos-ku!

-Muzdek qilsam, yuzi ko'karmaydimi, degandim.

-Balchiqli suvda yashaydi-ku mikroblar. Oling ro'molchangizni!..

Buvijonim ko'yaklari bilan mening yuzimni silab quritdilar va tez-tez velosipedimni itarib, yurib keta boshladilar: -Mayli, xayr, ko'p gaplashib ish orttirdik.

U xola uzoqlashgach buvim yo'l-yo'lakay peshonam ko'karib qolmasin deb silab-silab shunday dedilar: - Yetim qo'zi asrasang og'zi burning moy bo'lar...

Qolgan gaplarni eshittirmadilar. O'zi shundoq ham men savol berishga chog'lanib turgandim, ammo ko'zlaridagi yoshni, ranglari so'lib, xomush bo'lib qolganlarini ko'rib, zo'rg'a jum bo'ldim. Bunaqa paytlarda jum bo'lish kerak. Bo'lmasa buvijonim Hojiakbar amakimni eslab battarroq yig'lab oladilar...



(Davomi bor).

Cho'pon zoti borki, hamisha barvaqt uyg'onishadi. Ularning mashaqqatli kasbi ham kun yorishmasdan turishni taqozo qiladi. Yaylov olis, qo'y-qo'zilar holsizlanib qolishi mumkin. Shu bois ham barvaqt salqinlab yo'lga tushiladi. Katta otarning ichida darmonsizlangan sovliq nogoh yiqilsa, oyoq ostida qoladi yoki ortda qolib ketsa, bo'rilariga yem bo'ladi. Ayniqsa, qish kunlari och bo'rilar izg'ib yurishadi. Keyingi paytlarda bo'rilar ko'payib, cho'ponlarga kun berishmayapti. Ular tun-u kun otarlarini poylab yotadigan bo'lishdi. Cho'ponlar orasida Qarshi cho'ponning qo'yalarini bo'rilar ovlayolmasdan tishlarini g'ijirlatib-g'ijirlatib nari ketishardi. Bunga sabab, bir tomondan qishin-yozin iligi to'q qo'y-qo'zilarni ovlash mushkul bo'lsa, ikkinchi tomondan uning o'ta sezgirligi ish berardi.

Bo'rilar hujumidan tinkasi qurigan cho'ponlar birgalashib ularni yo'q qilishga kirishadilar.

Shom cho'kishi bilan oldinda Qarshi cho'pon, ortidan uning hamrohlari miltiqlarini yelkalariga osib yo'lga tushadilar. Nihoyat ular tog'ning yuqoriq qismiga yetib borganlarida yon-atroflaridan bo'rilarining uvillagan ovozi eshitila boshlaydi. Atrofni o'rab olgan qorong'ulikning quyuqligi bois bo'rilarining o'zlarini tomon halqa yasab yaqinlashayotganini sezishgan cho'ponlarni vahima bosa boshladi. Shunda Qarshi cho'pon yelkasidagi miltig'ini sekin qo'liga oldi. Hamrohlari ham shunday qilishdi. Qarshi cho'pon irillab o'ziga juda yaqin turgan bo'rini nishonga oldi. Tepkini bosishi bilan gumburlagan o'q kulrang bo'rini yerga qulatdi. Zudlik bilan otilgan ikkinchi va uchinchi o'qlar ham birin-ketin yana ikki bo'rini yer tishlatdi. Qolgan cho'ponlar ham miltiqlarini ishga solishdi. Sarosimada qolgan bo'rilar ortga tisarilib qocha boshladilar. Ilk hujumni muvaffaqiyatl tugatgan otar egalari chamasi olti-yettitacha o'lgan bo'rilarni qaytishda olamiz, deya tog'ning o'nqir-cho'nqir yo'llaridan balandga ko'tarila

boshladilar. Nogoh o'ngir tomondan ingichka, bolanikiga o'xhash ovoz eshitildi.

-Qarshi, eshitdingmi og'ayni, - sekin shivirladi Anvar cho'pon.

-Ha, ovoz chiqarmay sekin odimlanglar, - buyurdi Qarshi cho'pon.

Bu paytga kelib oy tiniqlashib, atrofni g'ira-shira

Qo'zichoqni qattiq ma'rab yubormasin deya sekin ungur yonidagi sayhonlikka qo'ygan Qarshi cho'pon asta emaklab ortiga qaytdi. Katta toshning panasiga berkinib, voqeanning nima bilan tugashini kuta boshladi. Sababi, bo'rilar nuqul katta qo'yarni ovlashib, qo'zichoqlarga ziyon yetkazmayotgan edilar. Nega shunday? Bu haqli savolga javob topmoqchi bo'lgan Qarshi cho'pon shu ishga qo'l urdi. Qo'zichoqning cho'zib ma'rashini eshitgan ona bo'ri yugurib uyasidan chiqdi. Unga yaqin kelib atrofni bir aylandi-da, tishlab uyasiga olib ketdi. Endi qo'zichog'im xomtalash bo'lsa kerak, deb nafasini ichiga yutib turgan Qarshi cho'pon bir pastdan keyin uyadan avval ikki nafar bo'ri bolasi, so'ngra qo'zichoqni yugurib chiqqanini ko'rib, hayratdan qotib qoldi.

Ular bir zum yugurishib, bir-birini quvladilar-da, yana uyalariga kirib ketdilar. Oradan biroz vaqt o'tib, ona bo'ri qo'zichoqni tishida tishlaganicha shiddat bilan uyasidan yugurib chiqdi. U qo'zichoqni yerga tashladi-da, yana iziga qaytdi. Zum o'tmay, bolasini tishlab qo'zichoq yotgan yerga olib keldi. Bo'ri bolasini oyoqlari ostiga qo'yib, uzunduzoq mungli tovushda uvilladi. So'ng, bolasini bo'ynidan bir tishlab, o'limga mahkum etdi, keyin boshini quyi egib, uyasiga kirib ketdi.

Voqeani ko'rib, Qarshi cho'ponning esi og'ib qolay dedi. Demak, bo'ri bolalaridan biri qo'zichoq bilan olishib o'ynayotgan chog'ida uning bo'g'ziga tish botirib o'ldirib qo'yGANI sabab, ona bo'ri uni shunday ayovsiz jazolabdi-da. Bu voqeani eshitgan qishloq ahli ham lol qolishibdi. Demak, bo'rilarida ham vijdon, insof degan tushunchalar mavjud ekan.

Zilola POZILOVA,
S.Rahimov akademik
litseyining 3- bosqich talabasi.

(Hikoya)

ko'rish mumkin edi.

-Bu bo'ri bolasining ovozi, yaqin o'rtada uyas bo'lsa kerak, - ta'kidladi Xolmurod cho'pon.

Darhaqiqat, shunday bo'lib chiqdi. Chunki ona bo'rining qattiq uvillashi bolalarining ovozini bosib ketdi.

-Qaytdik. Oldinga yurish xavfli, tong otib qolyapti, - dedi Qarshi cho'pon. Boshqalar unga so'zsiz itoat qilishdi.

Ertasiga bo'rilarining o'ligini tomosha qilishga kelgan qishloq ahli cho'ponlarning dovyurakligiga tan berishdi.

Kech kirib, qorong'u tushishi bilan Qarshi cho'pon kichkina bir qo'zichoqni ko'tarib oldi-da, aylanma yo'llar bilan ona bo'rining uyasiga yo'l oldi. Manzilga yetib kelganida soat tungi chorakam ikki bo'lgan edi.

Bo'stonliq tumanidagi «Boychechak» bolalar oromgohi rahbari Ozoda opa Ro'zimatova oromgohni aylanib yurgan edi. Qulog'iga shunday suhbat chalinib qoldi:

- Eh, Doniyor, qani endi hozir Germaniyada bo'lib qolsam. U yerda bo'layotgan futbol bo'yicha jahon championatini ko'rgim kelyapti-da.

- O'zbekistonni ana shunday championatda qatnashishini, men esa ularga xuddi chol Ibn Xattobdek yordam berishni istardim.

- Juda antiqa futbol bo'lardi-da o'ziyam, - kulishdi ikki o'rtoq.

Ozoda opa xorazmlik bolalarning bu orzularini ro'yobga chiqargisi keldimi, to'g'ri bosh tarbiyachi Mirshohid Mirakmalovning xonasiga yo'l oldi. Ertasi kuni e'lonlar taxtasida shunday xabar paydo bo'ldi.

«Diqqat, diqqat!

Bugun kechqurun oromgohimizda «Farmonbibi» hamda «Charli Chaplin» jamoalari o'rasisida quvnoq futbol bo'ladi. Unda ishtirok etishni istaganlar bosh tarbiyachiga uchrashsin».

Doniyor bilan Rasul quvonchdan chapak chalib yuborishdi.

Kech bo'lishini sabrsizlik bilan kutishdi.

Doniyor «Charli Chaplin» guruhiga, Rasul «Farmonbibi» guruhiga muxlis bo'ldi.

Bir payt stadionga «Charli Chaplin» jamoasi Kong, Uch baqaloq, King Kongcha, Mister Bin, «Farmonbibi» jamoasi o'yinchilari – Farmonbibi, Sotti, Nasriddin Afandi, usta Boqi, Chol ibn Xattob, Mirjalol Qosimov tushib kelishdi.

«Farmonbibi» jamoasi hurmat yuzasidan o'yinni boshlashni «Charli Chaplin» - chilarga (axir futbol Angliyada tug'ilganda) topshirdi.

O'yin boshlandi. «Charli Chaplin»chilar darvozaboni King Kongcha judayam g'irromchi chiqib qoldi. To'p qo'liga tushib qolsa bo'ldi, mahkam bag'riga bosib turaveradi.

Qozi – sudyu xunob. Yaxshiyam Farmonbibi bor. Shartha borib King Kongcha orqasiga bir shapati urdi-yu, qo'lidan to'pni olib, zarb bilan tepib o'yinga tushiradi.

O'zbekchilik qursin, oyog'iga kelib tushgan to'pni Nasriddin Afandi

manzirat qilib, Mister Benga uzatib o'tiribdi. Bundan joni kirgan Mister Ben usta Boqini chalib yiqitganga olg'a intildi va to'pni King Kong Vitsinga, Vitsin esa raqib darvozasiga... yaxshiyam darvozabon – Afandining eshagi to'pni to'rt oyoqlab qaytarishga ulgurdi. To'

yarim himoyachiga to'g'riga, undan hujumchi Mirjalol Qosimovga o'tdi. Va niyoyat to'p King Kongchani dog'da qoldirib, darvoza to'rini teshib o'tdi. Hisob 1:0. O'g'lining noshudligidan uyangan King Kong yuragini changallab yiqildi. Stadion zirillab ketdi. Doktor Voyjonim yordamga yugurdi...

Shu payt to'p yo'qolib qoldi. O'yinchilar stadionda u yoqdan - bu yoqqa yugurib, to'pni qidirib yugurishdi. Ularning bezovtaligi sababini tushunib qolgan Chol ibn Xattob maydonga naq 22ta to'p tashlab yubordi.

Ana endi ko'ring tomoshani. O'yinchilar to'plarni bitta-bitta terib qopga solguncha o'yin vaqtini ham niyoyasiga yetdi. Tabloda 1:0 hisobi porladi.

Tomoshabinlar gulduros qarsak chalishdi. Yo'q, yutuqqa emas. Barzangi King Kongni yelkasida dast ko'tarib chiqib kelayotgan chivinday doktor Voyjonimni olqishlashdi.

Ma'lum bo'lishicha, bu qahramonlar rolini oromgoh dam oluvchilar, oshpaz opalar, yetakchilar ijro etishibdi.

Oromgohga tashrif buyurgan Toshkent viloyati Bolalar sportini rivojlantirish boshqarmasidan kelgan mehmonlar bolalarga olam-olam shodlik bergen bu antiqa futbol o'yini tashkilotchilari Ozoda Ro'zmetova, Mirshohid Mirakmalovga rahmat aytib, oromgohga 500 ming so'mlik sport anjomlari sovg'a qilishdi. O'zteleradio qoshidagi «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs dastasi esa ajoyib konsert dasturi namoyish etdi.

Xorazm viloyatidan kelib, bu maskanda miriqib dam olayotgan 60 nafar bola oromgohda o'tayotgan har bir maroqli kunlari uchun Bo'stonliqning Sumcha qishlog'idagi «Boychechak» oromgohi rahbarlariga rahmatlar aytdi.

ANTIQA FUTBOL

o'yinchilari – King

Yalmog'iz.

«Farmonbibi» jamoasi o'yinchilari – Farmonbibi, Sotti, Nasriddin Afandi, usta

Boqi,

Chol ibn Xattob, Mirjalol Qosimov tushib kelishdi.

«Farmonbibi» jamoasi hurmat yuzasidan o'yinni boshlashni «Charli Chaplin» -

chilarga (axir futbol Angliyada tug'ilganda) topshirdi.

O'yin boshlandi. «Charli Chaplin»chilar darvozaboni King Kongcha judayam

g'irromchi chiqib qoldi. To'p qo'liga tushib qolsa bo'ldi, mahkam bag'riga

turaveradi.

Qozi – sudyu xunob. Yaxshiyam Farmonbibi bor. Shartha borib King

Kongcha orqasiga bir shapati urdi-yu, qo'lidan to'pni olib, zarb bilan tepib

o'yinga tushiradi.

O'zbekchilik qursin, oyog'iga kelib tushgan to'pni Nasriddin Afandi

manzirat qilib, Mister Benga uzatib o'tiribdi. Bundan joni kirgan Mis-

ter Ben usta Boqini chalib yiqitganga olg'a intildi va to'pni King Kong

Vitsinga, Vitsin esa raqib darvozasiga... yaxshiyam darvozabon –

Afandining eshagi to'pni to'rt oyoqlab qaytarishga ulgurdi. To'



1. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbida nimalar tasvirlangan?

A. Paxta, Xumo qushi, bug'doy. B. Paxta, bug'doy, bayroq, Xumo qushi. S. Paxta, bug'doy, bayroq, oy va yulduz, Xumo qushi, quyosh.

3. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ida necha xil rang mavjud va qaysilar?

A. Oq, moviy, yashil. B. Oq, moviy, yashil, qizil. S. Oq, sariq, yashil.

5. O'zbekiston Mustaqil deb e'lon qilingan kunni ayting.

A. 1991-yil, 29-avgust. B. 1991-yil, 1-sentabr. S. 1992-yil, 8-dekabr.

7. Qaysi biri baland bo'lib o'sadi?

A. Chinor.




B. Sada.

C. Terak.

9. Nima uchmaydi?

A. Samolyot. B. Varrak. S. Damas.




FUTBOL - TOPQIRLIK MASHQI

Javoblar shakldagi raqamli xonadan yoqlar bo'yicha markaz tomon yoziladi.

1. Italiya futbol terma jamoasi darvozaboni.
2. Juhon futbol championati final bosqichi turnirida eng ko'p gol uragan urugvaylik futbolchi.
3. Fransiya terma jamoasining jahon birinchiligidagi bir bor ishtirok etib, o'n uchta to'p kiritgan hujumchisi.
4. London shahridagi futbol stadioni.
5. Qit'alararo kubok sovrindori bo'lgan jamoaning eng mohir futbolchisiga taqdim etiladigan Yaponiya avtomobili markasi.
6. Birinchi sovrin -FIFA kubogini yasash sharafiga muyassar bo'lgan parijlik zargar.
7. Futbol o'yini vatani joylashgan qit'a.
8. Germaniya terma jamoasi sardori, «Bavariya» yulduzi.
9. Teng natija bilan yakunlangan o'yin.
10. Juhon birinchiligidagi Shvetsiya terma jamoasi bilan bo'lgan o'yinda to'rtta to'p kiritgan braziliyalik hujumchi.
11. Jahonga mashhur sport firmasi.
12. Ispaniya terma jamoasida o'ynagan yulduzlardan biri.
13. Juhon championatida to'rt bor ishtirok etgan Italiya futbol yulduzi.
14. Angliyaning «Liverpul» jamoasi himoyachisi.
15. «Chelsi» jamoasi hujumchisi.
16. Vatanimiz oliy tabaqa jamoasi.
17. «Barselona» jamoasi futbolchisi.
18. «Paxtakor» jamoasi himoyachisi.
19. Yaponianing mashhur futbolchisi.
20. «Oltin to'p» sovrindori Gollandiya terma jamoasining sobiq to'purari.
21. Futboldagi o'yindan tashqari holat atamasi.
22. Fransyaning «Tuluza» jamoasi.
23. Yevropa championlar ligasining bu yilgi final o'yini qatnashchisi «Arsenal» jamoasi murabbiyi.
24. Vatanimizdagi viloyatga nomdosh futbol jamoasi.
25. «Real» jamoasi yulduzlaridan biri.
26. Fransiyadagi futbol jamoasi.
27. Argentina terma jamoasining 1973-1982-yillarda o'ynagan to'purari.
28. Parijdagi futbol stadioni.
29. «Atletiko» (Ispaniya) jamoasi to'purari.
30. Pele to'p surgan Braziliya futbol jamoasi.

Endi javoblarni to'g'ri yozgan bo'lsangiz, shakl aylanalaridagi harflarni soat mili yo'nalishida o'qing. Bunda ulardan millionlarni o'ziga maftun etgan musobaqaga berilgan ta'rifni bilib olasiz.



Foziljon ORIPOV tuzdi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(bosh muharrir o'rinnbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrdan
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftanining dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 18717
Buyurtma N: J 2591

Dizayner va sahifalovchi:
**Fazliddin
SHAYADGAROV**
Navbatchi:
**Gulnora
AHMEDOVA**

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81
144-63-08

Tel./faks:
(99871) 144-24-45